



## Psixologiyaning inson hayotidagi o'rni

Bahromov Burhoniddin Fozil o'g'li

Termiz davlat universiteti fizika-matematika fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar : Abdurahmonova Aygul Toxirovna

**Annotatsiya:** Maqolada psixologiya fanining inson hayotidagi o'rni haqida ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'zlar :** psixologiya , shaxs, jamiyat, insoniy munosabatlar, ijtimoiy ta'sir.

21-asrning buyuk o'zgarishlar davri bo'lishiga shubha yo'q. bu o'zgarishlar eng avvalo inson tafakkurida , uning fikrlash tarzida ro'y berishi muqarrar. Tabiiyki, bu holat shaxs ma'naviyati va u orqali jamiyatning ma'naviy qiyofasiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishining hayotiy zarurati va dolzarbligi haqida gapirar ekanlar , "Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik , el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash , ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oljanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur" , deb alohida ta'kidlaydilar. Bu vazifalar , birinchi navbatda kelajakning buniyodkorlari bo'lmish yosh avlodning bilim olish , yuqori malakali kadrlar bo'lib o'z yurti va xalqiga sidqidildan xizmat qilish , ozod yurt ravnaqi va baxt-saodati uchun halol mehnat qilishga o'rgatishni nazarda tutadi. Zero , mustaqillik aynanfidoiy, o'z Vatani manfaatlariga g'oyat sadoqatli , yuqori malakali kadrlarning jamiyatni boshqarishni taqozo etadi.

Psixologiya fanining dolzarb vazifalari va predmeti. Psixologiya soxasida mukammal darsliklar yozila boshlagan davrga sal kam 160 yil bo'ldi.

Inson psixologiyasini bilish , o'z tarqqiyotini va iqtidorini tshkil etishni bilish , har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni , turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash , yangicha fikrlash va tafakkur qilish , ro'y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to'g'ri idrok etish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Klassik psixoanalizning asoschilaridan bo'lgan avstraliyalik olim Zigmund Freyd psixologiya , nafaqat ong sohasini , ya'ni bevosita odam tomonidan anglanadigan xulq-atvor shakllarini , balki ongsizlikka aloqador hodisalarni , ya'ni real sharoitda inson o'zi anglab yetolmaydigan hodisalar tabiatini ham o'rganishi lozim, degan g'oyani ilgari surdi .

Odamlar psixologik faktlarga ko'proq qiziqib , ularni ko'rib , o'qib , o'rganib , borgan sari unda o'zgarishlar bo'lishi mumkin . odamlar psixologiyani o'rganar ekan , undagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixikasini bila oladigan bo'lib qoladi . Bu bilim esa boshqa kishilarni va o'zini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.



Har bir o'qituvchi o'qituvchi o'quvchiga ta'lif berayotgan paytda ta'lifga qo'shib tarbiya ham beradi , mакtabga borgan bola maktabdan faqat ta'lif olibgina qolmay, tarbiya ham oladi va atrofdagilar bilan muloqot qilishni , yurish-turish , kiyinish madaniyatini ham o'rganadi. Shuni ma'lumot o'rнida aytish lozimki, pedagogik psixologiyani shartli ravishda bir necha turlarga ajratish mumkin: a) ta'lif psixologiyasi; b) tarbiya psixologiyasi; d) o'qituvchi psixologiyasi; e) oliy ta'lif psixologiyasi kabilarga bo'linishi mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, psixologiya mavzusini yoritib berishimning asosiy maqsadi , psixologiya asli inson o'zini anglashda , jamiyatda , oilada va hayotga bo'lган munosabatlarini o'rganishga yordam beradi. Inson umr bo'yи turli bosqichlarni bosib o'tadi , psixik jarayonlar va shaxsning individual psixologik xususiyatlarini umumiyl qonuniyatlarini namoyon bo'lish mexanizmlarini aynan psixologiya o'rganadi . Ta'lif olayotgan paytdagi holatlarni ya'ni kishiga ta'lif- tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganadi . Odamlarning tug'ilganidan to umrining oxirigacha bo'lган psixik rivojlanish jarayonini shaxsning shakllanishi yosh davrlar psixologiyasi o'rganadi . Odamlarning bir-birlari bilan jamiyattdagi muloqoti ish -faoliyatlarini natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar , hissiy kechinmalar va xulq-atvorni umumiyl psixologiyada o'rganamiz.

Bu mavzularning har biri psixologiya faniga oid va u inson hayotida muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V. Karimova "Psixologiya". 6-7-8- betlar;
2. M.E. Zufarova "Umumiyl psixologiya" darslik , 8-bet;
3. E. G'.G'oziyeva " Psixologiya" darslik, 26-bet.